

YOSHLARNING YASHIL IQTISODIYOTGA MUNOSABATI

Maxamadjanov M.I.A.

"Transport energetik qurilmalari" kafedrası dotsenti, t.f.n.

Ismailov E.U.

"Transport energetik qurilmalari" kafedrası assistenti

Ahmadjonova Shahnozabonu Muhammadali qizi

TDTU Sotsiologiya yo`nalishi 3-bosqich talabasi

Annatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning yashil iqtisodiyotga bo'lgan munosabati, ekologik ong va barqaror rivojlanish jarayonlaridagi ishtiroki ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlar orasida ekologik mas'uliyatni shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va resurslardan oqilona foydalanish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirishda xalqaro tashkilotlar, xususan BMT tashabbuslari, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan Prezident qarorlari tahlil qilinadi. Maqolada yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish, yashil texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash va barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash bo'yicha ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar keltiriladi.

Annotation: This article scientifically analyzes young people's attitudes toward the green economy, their ecological awareness, and their participation in sustainable development processes. The study examines issues related to the formation of environmental responsibility among young people, environmental protection, and the rational use of natural resources. In addition, the article analyzes the role of international organizations, particularly the initiatives of the United Nations, as well as the presidential decrees adopted by the President of the Republic of Uzbekistan in the development of green economy principles. The article also presents scientific conclusions and practical recommendations aimed at increasing the ecological culture of young people, supporting green technologies, and ensuring sustainable economic development.

Аннотация: В данной статье научно анализируется отношение молодежи к «зеленой экономике», уровень экологического сознания и их участие в процессах устойчивого развития. В исследовании рассматриваются вопросы формирования экологической ответственности среди молодежи, охраны окружающей среды и рационального использования природных ресурсов. Кроме того, в статье анализируются инициативы международных организаций, в частности Организации Объединенных Наций, а также указы Президента Республики Узбекистан, направленные на развитие принципов зеленой экономики. В статье также представлены научные выводы и практические рекомендации по повышению экологической культуры молодежи, поддержке зеленых технологий и обеспечению устойчивого экономического развития.

Kalit so'zi: Yashil iqtisodiyot, yoshlar, barqaror rivojlanish, ekologik ong, ekologik madaniyat, atrof-muhit muhofazasi, energiya samaradorligi, yashil texnologiyalar, ekologik ta'lim, ijtimoiy ma'suliyat.

Keywords: green economy, youth, sustainable development, environmental awareness, ecological culture, environmental protection, energy efficiency, green technologies, environmental education, social responsibility.

Ключевые слова: зелёная экономика, молодежь, устойчивое развитие, экологическое сознание, экологическая культура, охрана окружающей среды, энергоэффективность, зелёные технологии, экологическое образование, социальная ответственность.

Hozirgi globallashuv sharoitida iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning degradatsiyasi hamda tabiiy resurslardan haddan tashqari foydalanish kabi muammolar insoniyat taraqqiyotiga jiddiy tahdid solib kelmoqda. Mazkur holatlar iqtisodiy rivojlanishning an'anaviy modellarini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirib, barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan yashil iqtisodiyot konsepsiyasining shakllanishiga turtki bo'lib kelmoqda. Yashil iqtisodiyot iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda ekologik xavfsizlikni

ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish ko'zda tutiladi.

Yashil iqtisodiyot — bu insonlar hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan moddiy-ma'naviy ne'matlarni, atrof-muhit va bioxilma-xillikni bir butun holda saqlanib qolgani, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari bilan uzviy bog'liqlikda rivojlantirishga asoslangan faoliyatlaridan biridir. Jahon miqyosida murakkab, noaniq va tez o'zgaruvchan vaziyatda atrof-muhitni muhofaza qilish hamda davlat va ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasi Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2009-yildagi global moliyaviy inqirozdan so'ng ilgari surilgan bo'lib unda, bugungi kunda uning ahamiyati yanada ortib bormoqda. 2015-yilda butun dunyo mamlakatlari barqaror rivojlanish bo'yicha 2030-yilgacha mo'ljallangan harakatlar strategiyasi va uning tarkibidagi 17 ta Barqaror rivojlanish maqsadlarini qabul qilgan. Ushbu maqsadlar dunyodagi qashshoqlikka barham berish, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va yangi ish o'rinlarini yaratish kabi turli ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish, atrof-muhitni muhofaza qilish hamda iqlim inqiroziga qarshi kurashishga yo'naltirilgan.

«Yashil iqtisodiyot» atamasi iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni uyg'unlashtirishni anglatadi. BMTning Atrof-muhit dasturi (UNEP) ta'rifiga ko'ra, «Yashil iqtisodiyot inson farovonligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan birga ekologik xavflarni va tabiiy resurslardan foydalanish cheklovlarni kamaytirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotdir». Ya'ni, yashil iqtisodiyot iqtisodiyotdan ham ko'ra birinchi navbatda ekologik muvozanatsizlikka ko'proq urg'u beradi. Bugungi kunda «yashil» so'zi nafaqat rang, balki ekologik ong va barqarorlik timsoliga aylanganini ko'rishimiz ham mumkin. Aynan shuning uchun «yashil iqtisodiyot» atamasi bevosita iqtisodiyot va ekologiyaning uyg'unligini ifodalaydi. Umumiy tushuncha sifatida atrof-muhitga zarar yetkazmasdan, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish iqtisodiyotidir. Ko'plab olimlar ushbu tushunchaning nazariy asoslarini chuqur tahlil qilgan. Xususan, Pearce, Markandya va Barbier «Green Economy Blueprint» asarida yashil iqtisodiyotning shakllanishida tabiiy kapitalning rolini asoslab berdi. Ular iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda atrof-

muhit qiymatini inobatga olish zarurligini ta’kidlashgan. Ushbu fikrlar ko‘p jihatdan Daly tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, “barqaror miqyosli iqtisodiyot” nazariyasiga tayanadi, unda iqtisodiy faoliyat ekologik cheklovlar doirasida olib borilishi kerakligi uqtiriladi. Xalqaro amaliyotda esa Yevropa Ittifoqi davlatlari, xususan Germaniya va Niderlandiyada yashil iqtisodiyot tamoyillariga asoslangan siyosatlar muvaffaqiyatli joriy etilgan. Milliy darajada, O‘zbekistonda ham yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lida muhim hujjatlar qabul qilinmoqda. Jumladan, Prezident qarorlari hamda strategik dasturlar asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish va chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Energetika vazirligi hamda “Yashil makon” loyihalari orqali ekologik barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan milliy tashabbuslar kengaymoqda.

Xususan, yoshlar o‘rtasidagi xalqaro aloqalar zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri. Ayniqsa, yashil iqtisodiyot doirasida bu aloqalar global ekologik muammolarni hal etishda, innovatsion g‘oyalarni rivojlantirishda hamda barqaror rivojlanishni ta’minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kunda yoshlar turli xalqaro dasturlar, loyihalar va platformalar orqali o‘zaro hamkorlik qilib, bilim va tajriba almashmoqda. Xalqaro aloqalarning eng muhim shakllaridan biri bu ta’lim va akademik almashinuv dasturlaridir. Bunday dasturlar orqali yoshlar xorijiy davlatlarda tahsil olish, ilmiy tadqiqotlarda ishtirok etish va ekologiya sohasidagi ilg‘or tajribalarni o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Jumladan, Erasmus+ dasturi yoshlar uchun xalqaro miqyosda bilim olish va tajriba orttirish imkonini kengaytirib bermoqda. Bu esa ularning dunyoqarashini boyitib, global fikrlash ko‘nikmasini shakllantiradi. Shuningdek, yoshlar xalqaro grantlar va loyihalarda faol ishtirok etib kelmoqda. Bunday tashabbuslar yoshlarning ekologik muammolarga amaliy yechimlar topishiga yordam beradi. Xususan, United Nations Development Programme tomonidan amalga oshirilayotgan dasturlar yoshlarning yashil iqtisodiyot sohasidagi startap va loyihalarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan. Bu esa yoshlarning nafaqat bilimini, balki amaliy ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Yoshlar oʻrtasidagi xalqaro aloqalarning yana bir muhim shakli bu turli forum va konferensiyalardagi ishtirokdir. Bunday tadbirlar global muammolarni muhokama qilish, yangi gʻoyalarni ilgari surish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash uchun muhim maydon hisoblanadi. Masalan, UN Youth Climate Summit doirasida yoshlar iqlim oʻzgarishi va ekologik barqarorlik masalalarini muhokama qilib, oʻz tashabbuslarini taqdim etadi. Bundan tashqari, yoshlar oʻrtasidagi xalqaro aloqalar ijtimoiy harakatlar orqali ham rivojlanmoqda. Jumladan, Fridays for Future harakati butun dunyo yoshlarini iqlim oʻzgarishiga qarshi kurashishda birlashtirdi. Bu kabi tashabbuslar yoshlarning ekologik ongini oshirib, ularni faol fuqarolik pozitsiyasiga undaydi. Zamonaviy axborot texnologiyalari esa yoshlar oʻrtasidagi xalqaro aloqalarni yanada kengaytirdi. Internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoshlar turli mamlakatlardagi tengdoshlari bilan muloqot qilib, qoʻshma loyihalar ustida ishlamoqda. Onlayn seminarlar, vebinarlar va virtual loyihalar yoshlar uchun qulay hamkorlik platformasiga aylangan.

Barqaror iqtisodiyot – bu iqtisodiy oʻsish, ijtimoiy farovonlik va atrof-muhit muhofazasini uygʻun holda rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Ushbu yondashuv bugungi avlod ehtiyojlarini qondirish bilan birga, kelajak avlodlarning ham resurslardan foydalanish imkoniyatlarini saqlab qolishni nazarda tutadi. Barqaror iqtisodiyot tushunchasi ilk bor United Nations tomonidan ilgari surilgan boʻlib, ayniqsa 1987-yildagi “Brundtland hisobotida” keng yoritilgan. Unda barqaror rivojlanish “kelajak avlod manfaatlariga zarar yetkazmagan holda hozirgi ehtiyojlarni qondirish” sifatida taʼriflanadi. Barqaror iqtisodiyot uch asosiy ustunga tayanadi.

Birinchi – iqtisodiy barqarorlik, yaʼni ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va uzoq muddatli iqtisodiy oʻsishni taʼminlash.

Ikkinchi – ijtimoiy barqarorlik, bu aholining turmush darajasini yaxshilash, kambagʻallikni kamaytirish va teng imkoniyatlar yaratishni anglatadi.

Uchinchi ustun esa – ekologik barqarorlik, yaʼni tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik muvozanatni saqlashdir.

Bugungi kunda barqaror iqtisodiyot konsepsiyasi global miqyosda keng qoʻllanilmoqda. Xususan, United Nations Development Programme va United Nations

Environment Programme tomonidan turli dasturlar orqali davlatlarga ushbu yo‘nalishda yordam berilmoqda. Shuningdek, “yashil iqtisodiyot”, “aylanma iqtisodiyot” (circular economy) va “inklyuziv o‘shish” kabi tushunchalar ham barqaror iqtisodiyotning tarkibiy qismlari hisoblanadi. Barqaror iqtisodiyotning amaliy ahamiyati juda katta. U resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik xavflarni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada iqtisodiy rivojlanish bilan birga inson salomatligi va atrof-muhit himoyasi ham ta‘minlanadi.

Bugungi kunda yoshlar o‘zlarining start up g‘oyalarini ommaga taqdim etishmoqda. Ushbu jarayondagi yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yosh tadbirkorlar yangi g‘oyalar va innovatsion yechimlar taklif qilib, iqtisodiy rivojlanishga hissa qo‘shishlari katta o‘zgarishlarga ham olib kelmoqda. Davlatimiz tomonidan qo‘llab-quvvatlash dasturlari orqali yoshlarning start uplarini amalga oshirish uchun zarur sharoitlar yaratilib kelinmoqda. Bunga grantlar, subsidiyalar, imtiyozli kreditlar va boshqa moliyaviy yordam turlari ham kiradi. Yosh tadbirkorlarni tayyorlash uchun maxsus treninglar, seminarlar va master-klasslar o‘tkazish ham muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, davlat yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirish maqsadida inkubatsiya markazlari va biznes akseleratorlarini tashkil etishi zarur. Bu markazlar yosh tadbirkorlarga o‘z g‘oyalarini rivojlantirish, biznes rejaları tayyorlash va bozorni o‘rganish kabi masalalarda yordam berishi mumkin. Shuningdek, muvaffaqiyatli tadbirkorlar bilan mentorlik dasturlari orqali tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish ham foydali bo‘ladi. Yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini rag‘batlantirishda esa jamoatchilik va xususiy sektor bilan hamkorlik ham muhim hisoblanadi. Xususiy kompaniyalar o‘z resurslari bilan yosh tadbirkorlarga yordam berishi, ularning g‘oyalarini amalga oshirishda qo‘llab-quvvatlashi kerak bo‘ladi. Bunday hamkorlik nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki jamiyatda ijtimoiy mas‘uliyatni ham oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019–2030 yillarda “O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” to‘g‘risidagi qarori, 04.10.2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017–2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni, 07.02.2017.
3. Pearce, D. “The Role of Carbon Taxes in Adjusting to Global Warming”, *Economic Journal*, 101(407), 938-948, 1991.
4. UNEP. “Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication”. United Nations Environment Programme, 2011.
5. Shavkatbek, Egamberdiyev. "GLOBAL TRENDS IN THE GREEN ECONOMY." *Modern education and development* 19.4 (2025): 26-30.
6. United Nations Development Programme. *Youth and Climate Action Report*. New York, 2020.
7. OECD. *Green Growth and Sustainable Development*. Paris, 2015.
8. World Bank. *Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development*. Washington DC, 2012.
9. Erasmus+ dasturining rasmiy materiallari va hisobotlari.
10. Fridays for Future rasmiy platformasi va tahliliy ma’lumotlari.
11. United Nations. *Our Common Future (Brundtland Report)*, 1987.
12. OECD. *Sustainable Development Studies*, 2015.